


## XORAZM VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2018 yil yanvar-dekabr)


Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 5209,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,4 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1038,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 67,3%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 4170,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 0,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 495,3 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,8 %ga oshgan) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  
(mlrd. so'm)**



2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Urganch shahri, Xiva shahri va Xonqa tumanlarida qayd etildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 67,3 % ga o'sdi va 1038,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 19,9 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 4170,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 0,8 %ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 80,1 %ga teng kelmoqda.

## Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

2017 yil  
yanvar-dekabr




2018 yil  
yanvar-dekabr



■ Yirik korxonalar  
■ Kichik tadbirkorlik

## Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Yangibozor (99,6%), Xiva (99,1%), Yangiariq (98,6%) va Gurlan (98,2) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 19,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (48,4%), Xonqa tumani (10,5%) va Xiva shahri (9,0%) tumanida kuzatilgan.

## Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalar chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1038,9</b>	<b>167,3</b>	<b>4170,9</b>	<b>100,8</b>
<i>shaharlar:</i>				
<b>Urganch</b>	890,5	179,8	950,6	94,9
<b>Xiva</b>	20,2	2,8 m	204,5	100,7
<i>tumanlar:</i>				
<b>Bog`ot</b>	9,9	2,4 m	230,7	100,6
<b>Gurlan</b>	7,0	105,0	387,4	101,6
<b>Qo`shko`pir</b>	8,9	53,2	220,6	108,6
<b>Urganch</b>	26,1	84,9	437,9	103,6
<b>Xazorasp</b>	23,4	71,6	577,2	104,5
<b>Xonqa</b>	34,9	2,6 m	296,2	100,5
<b>Xiva</b>	1,3	76,2	138,4	102,7
<b>Shovot</b>	11,9	145,8	275,0	100,7
<b>Yangiariq</b>	4,2	113,7	288,2	101,8
<b>Yangibozor</b>	0,6	111,6	164,2	102,3

## Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2018 yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 2862,2 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,7 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkilar Urganch shahri (13057,7 ming.so'm), Gurlan (2732,7 ming. so'm) va Yangiariq (2592,2 ming.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Xiva (989,6 ming.so'm), Qo'shko'pir (1373,5 ming.so'm) va Bog'ot (1508,4 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
--	-----------	--

Xorazm viloyati	2862,2	107,7
-----------------	--------	-------

*shaharlar:*

Urganch	13057,7	121,9
---------	---------	-------

Xiva	2496,8	105,2
------	--------	-------

*tumanlar:*

Bog`ot	1508,4	101,3
--------	--------	-------

Gurlan	2732,7	100,2
--------	--------	-------

Qo`shko`pir	1373,5	102,6
-------------	--------	-------

Urganch	2417,9	100,4
---------	--------	-------

Xazorasp	2487,0	101,0
----------	--------	-------

Xonqa	1828,4	105,7
-------	--------	-------

Xiva	989,6	100,6
------	-------	-------

Shovot	1739,8	100,2
--------	--------	-------

Yangiariq	2592,2	100,3
-----------	--------	-------

Yangibozor	1940,9	100,6
------------	--------	-------

Jumladan, 2018 yilning yanvar-dekabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,6 %ni tashkil etib, 82,8 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 3,9 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 94,7 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


## XORAZM VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2018 yil yanvar-dekabr)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1226,0 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga nisbatan 13,6 %ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik korxonalar hisobiga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2018 yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, 654,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,6 %ga oshgan. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 53,3 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Gurlan tumani (99,3), Xiva shahrida (99,2%) yuqori bo'lgan.

**Yirik va kichik korxonalarining  
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 46,7 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Urganch tumanida (69,5%), Urganch shahrida (39,0%) kuzatildi.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1226,0</b>	<b>113,6</b>	<b>572,0</b>	<b>133,3</b>	<b>654,0</b>	<b>100,6</b>
<i>shaharlar:</i>						
<b>Urganch</b>	404,6	90,7	157,7	78,3	246,9	100,8
<b>Xiva</b>	38,5	102,0	0,3	8,3 m	38,2	101,3
<i>tumanlar:</i>						
<b>Bog`ot</b>	20,6	100,8	0,2	54,7	20,4	101,6
<b>Gurlan</b>	14,5	101,0	0,1	49,3	14,4	102,0
<b>Qo`shko`pir</b>	3,6	101,2	0,2	63,7	3,4	104,1
<b>Urganch</b>	591,7	145,8	411,2	187,2	180,5	96,9
<b>Xazorasp</b>	23,0	100,8	1,0	67,0	22,0	103,1
<b>Xonqa</b>	60,7	101,5	0,5	10,8	60,2	108,9
<b>Xiva</b>	24,5	101,4	0,2	81,1	24,3	101,6
<b>Shovot</b>	20,9	100,5	0,3	57,3	20,6	101,6
<b>Yangiariq</b>	12,8	100,9	0,2	57,6	12,6	101,9
<b>Yangibozor</b>	10,5	102,1	0,2	2,7 m	10,3	101,1



## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati Urganch tumani (145,8 %) va Yangibozor tumani (102,1%) da qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi  
bo'limi  
Tel.:62-224-65-09